



ISSN (E): 2181-4570

GENDER TENGLIGI MULOHAZA, MUAMMO VA TAKLIFLAR

Mingboyev Ibrohim Alisher o'g'li

Toshkent moliya instituti, Moliya fakulteti MMT-82h guruh talabasi

Lapasov Muhiddin Sa'dulla o'g'li

Toshkent moliya instituti, Moliya fakulteti MMT-82h guruh talabasi

Safarova Nodira Ashuraliyevna

Toshkent moliya instituti, Moliya kafedrası PhD, dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tengligini ta'minlash sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Gender muammosiga faqatgina g'arb olimlari nuqtayi nazaridan emas, balki sharqona qadriyatlar orqali yondashish kerakligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: gender, gender tengligi, qonun, ayol, erkak, gender adolat, qadriyat,

Bizga ma'lumki, Gender tushunchasi shaxs ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog'liq. Insonlar tug'ilishdanoq ijtimoiylashadi, o'zi yashayotgan jamiyatning stereotip, axloq, fe'l-atvor, hulq me'yorlari, ijtimoiy determinantlarga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o'zini tutishni o'rganadi. Shu bilan birga insonlarga oila, maktab, professional muhit, OAV, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlarda gender tengligi mavzusi ko'tarilganda "feminizm" (ayollar huquqlari) yoki "jins tengligi" tushunchalari ko'p tilga olinmoqda va muhokama qilinmoqda. Ammo gender tengligini "feminizm" yoki "jins tengligi" ma'nosida tushunish mutlaqo noto'g'ri. Ma'lumki, jamiyatimizda gender tengligiga oid masalalar O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi ortidan bahsga aylandi. Ushbu Qonun muhokamasi jarayonida ham uning qabul qilinishiga fuqarolar tomonidan qarshi fikrlar ham bo'lgan edi. Fuqarolarimiz mazkur Qonun jamiyatda uzoq yillardan beri shakllangan va an'anaga aylangan milliy qadriyatlarimizga zid kelishini, oilaviy munosabatlarni izdan chiqarishi mumkinligini bayon qilgan edilar. Bu xavotirlar esa o'rinsiz bo'lganini vaqtning o'zi ko'rsatdi, albatta. Chunki mazkur Qonun ayollar huquqi masalasida bizning yozilmagan diniy va milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni yanada kengroq qonuniylashtirdi, xolos.





Agar jamiyatda insonlar jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlaridan qat'i nazar qonunlarda berilgan huquqlardan bir xilda foydalana olish imkoniga ega bo'lsa, gender tengligi yuzaga keladi. Chunki fuqarolarga qonunlarda berilgan siyosiy, ijtimoiy, shaxsiy va boshqa huquqlardan ham erkak, ham ayol bir xilda foydalanishi kerak. Agarda qaysi bir jins vakili ayol yoki erkak bo'lgani uchun bu huquqlardan foydalana olmasa, shu nuqtada gender tengligi buzilgan hisoblanadi. Qonun va huquqni buzish holatlari ko'proq kimga nisbatan sodir bo'ladi?




1-rasm. Qonun va huquqni buzish holatlari¹

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengsizligini bartaraf etish bo'yicha ishlar faollashdi. Gender siyosati muammolari, gender tadqiqotlari, ayniqsa, "Ayollar muammosi" bilan bog'liq masalalar rasmiy darajada davlat siyosatining ustuvor masalalari qatoriga kiritilgan. Xotin-qizlarning mavqeyini oshirish, ayniqsa, ularning huquqlarini qonuniy hujjatlari orqali himoya qilish va kengaytirish bo'yicha choratadbirlar belgilandi.

Shu o'rinda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o'rinli deb bilaman: "... meni ongimizda chuqur ildiz otgan bir aqida ko'p o'ylantiradi. Biz doimo "ayol – bu ona, oilamiz bekasi", deb ularni ulug'laymiz. Bu to'g'ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz


¹ <https://telegra.ph/Oila-va-hotin-%D2%9Bizlar-ilmij-tad%D2%9Bi%D2%9Bot-instituti-olimlari-tomonidan-ZHamiyatda-hotin-%D2%9Bizlarning-%D2%9Bu%D2%9Bu%D2%9Bij-savodhonligini-%D1%9Erganish-mav-03-14>





demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart”².

Darhaqiqat, gender tengligi xalqimiz uchun yangilik bo‘lishi mumkin, lekin bu faqat “ibora” sifatida yangilik, xolos. Aslida, bugun barcha davlatlarning “gender tengligi” shiori ostida intilayotgan maqsadlari, bundan 1400 yil oldin muqaddas Islom dini qoidalari bilan jamiyatda joriy qilinib bo‘lingan edi. E’tirof etish kerakki, Islom dini birinchilardan bo‘lib, ayol kishi ham to‘laonli jamiyat a’zosi sifatida inson ekanini e’lon qilgan va qaror toptirgan.



2-rasm. Oilada haq-huquqingiz buzilganda yoki poymol bo‘lgandagi holat³

Tarixga nazar solsak, G‘arb olami “Ayol erkakni yo‘ldan urish uchun yaratilgan shaytondir, unga ko‘zi tushgan odam ham gunohkor bo‘ladi, ayol havoni bulg‘amasligi uchun to‘siq tutib turish kerak”, degan qarorlar qabul qilgan yoki sharqiy o‘lka Hindistonda “o‘lgan erkakning nasibasi o‘zi bilan ketishi uchun tirik xotini ham unga qo‘shib yondirilgan”⁴ bir davrda, musulmon diyorlarda ayolni xo‘rlamaslik, qizlarni tarbiyalaganlarning jannatga tushishi, jannat onalar oyog‘i ostida kabi diniy va milliy qadriyatlar hukm surganini unutish mumkinmi?

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan “Inson huquqlari to‘g‘risida”gi umumjahon deklaratsiyasi 1948-yilda qabul qilingan. Lekin 1960-yillarda ham, hatto 1970-yillarda ham ko‘p g‘arb davlatlarida ayollarning siyosiy huquqlari erkaklarniki

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi (2019-yil 21-iyun). “Xalq so‘zi”, 2019-yil 22-iyun.

³ <https://telegra.ph/Oila-va-hotin-%D2%9Bizlar-ilmij-tad%D2%9Bi%D2%9Bot-instituti-olimlari-tomonidan-ZHamiyatda-hotin-%D2%9Bizlarning-%D2%9Bu%D2%9Bu%D2%9Bij-savodhonligini-%D1%9Erganish-mav-03-14>

⁴ Islomda ayollarning huquqlari // <https://religions.uz/news/detail?id=1067> (murojaat vaqti:06.09.2022 y.)





bilan bir xil bo‘lmagan, ular ko‘p narsada to‘sqinlikka uchrashgan, kamsitilgan. Ammo bizning diyorlarda ayol ona, opa, singil, qiz sifatida ulug‘lanib kelingan. Jamiyatimizda ayol kishi ham xuddi erkak kishidek erkin va ozod yashaganligini e‘tiborga olsak, bu masalada G‘arb jamiyatidan o‘rganishimiz qanchalik to‘g‘ri?

Keyingi masala shundaki, gender tengligini milliy qonunchiligimizda qanday shaklda ifodalash zarurligi haqidadir. Bu masala ham juda muhim hisoblanadi. Fikrimizcha, g‘arb mamlakatlari tomonidan o‘rnatilgan gender tengligi standartlarini milliy qonunchiligimizga bevosita ko‘chirish milliy va diniy qadriyatlarimizni paymol qiladi. Chunki muqaddas qadriyatlarimiz jamiyatda erkak va ayolni tenglashtirishga emas, ayolni ulug‘lashga va uning manfaatlari ustuvorligini ta‘minlashga asoslanadi. Zotan, ayol zoti tabiatan nozik xilqat, uni erkak bilan tenglashtirishning hech ham imkoni yo‘q. Qonun ayolni ayol bo‘lgani uchun uning tabiati va imkoniyatidan kelib chiqib unga huquqlarda afzalliklar berishga majbur. Deylik, harbiy xizmatga, zararli va og‘ir ishlarga ayollarni ham xuddi erkaklar kabi jalb etish milliy adolat mezoniga qanchalik uyg‘un deb bilasiz? Albatta, uyg‘un emas. Buni mutaxassislarimiz quyidagicha bayon qiladi: “Erkak o‘z ishini qilishi lozim, ayol o‘z ishini. Agar teng huquqlilik oldinga surilaversa, chetdan dushmanlar kirib kelgan payt ayollar ham erkaklar qatori qo‘liga qurol olib maydonga chiqishlari talab etiladi”⁵.

Demak, “gender tengligi” masalasiga g‘arb jamiyati nuqtayi nazaridan qarash, ba‘zi qoidalarni ko‘r-ko‘rona xalqaro standart deb qabul qilish, milliy va diniy qadriyatlarimizga ularning qanchalik mos kelishini tekshirmay turib, hayotimizga joriy qilishga va milliy qonunchiligimizga singdirishga urinish mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda “jinslar tengligini ta‘minlash shiori” ostida insoniyat uchun jirkanch qoidalarni (masalan, bir jinsli nikohni) rasman tan olgan davlatlar soni 30 tadan oshib, ushbu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi aholi soni esa 1 mlr dan oshib ketdi.⁶ Eng achinarlisi va masalaning og‘riqli tomoni shundaki, ushbu mamlakatlarda bir jinsli nikohga xalq vakillari (parlament) yoki bevosita referendum orqali ovoz berish yo‘li bilan ruxsat etilgan. Bu nimani anglatishini taxmin qilish qiyin emas.

⁵ Odinoxon Muhammad Sodiq. Islomda gender tenglik // URL: <https://qalampir.uz/news/islomda-gendertenglik-37965>

⁶ Равенство полов // URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Равенство_полов (мурожаат вакти: 06.09.2022 й.)





Global ommaviy madaniyat tahdidlari jarayonida mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash masalasida, ayniqsa, milliy qonun ijodkorlarining o'ta hushyor bo'lishlari talab etiladi. Chunki bugungi kunda, jumladan, g'arb mamlakatlarida "gender tengligi" shiori ostida o'zlarining jirkanch maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilayotgan guruhlar ham yo'q emas. Shu o'rinda savol tug'iladi. Mamlakatimiz milliy qonunchiligi ayrim guruhlar tomonidan "gender tenglik"ni ro'kach qilib ommaviy madaniyatni xalqimiz orasida targ'ib qilishga urinishlarning oldini olish va cheklashga qay darajada tayyor? Bu savol ham dolzarb, ham hayotiy masaladir. Birgina misol, asosiy qonunimiz Konstitutsiyaning 63-moddasi 2-qismida "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi" deb belgilangan norma mavjud. Ya'ni mazkur konstitutsiyaviy normadan o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanuvchi guruhlar ham yo'q emas. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda go'yoki Konstitutsiyaning "tomonlarning ixtiyoriy roziligi" degan normasi "faqat ayol va erkakning nikoh tuzishini nazarda tutmagan", deb talqin qilayotganlarni ham uchratish mumkin. Bu muammoning samarali yechimi sifatida Rossiya Federatsiyasining qonunchilik tajribasini misol qilish mumkin. Xususan, 2020-yil 4-iyuldagi "Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan RF Konstitutsiyasining 72-moddasiga tuzatish kiritilib, nikoh ikki qarama-qarshi jinsdagi "ayol va erkakning ittifoqi" (защита института брака как союза мужчины и женщины) degan aniq norma belgilab qo'yildi.⁷ Natijada Rossiya Federatsiyasi nikoh faqat ayol va erkakning ittifoqi asosida qurilishi mumkinligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, bu masalada vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qildi.

Gender tengligi bilan bog'liq keyingi masala shundaki, fuqarolarimizga, ayniqsa, yoshlarimizga bu masalaning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushuntirishni targ'ib qilishdir. Chunki ijtimoiy hayotimizda yosh oilalarning, men "yevropacha" tarbiya ko'rganman degan vaj bilan oilada o'zining gender tengligini asossiz talab qilish holatlari oqibatida oilaviy ajrimlarning oshib ketishi kuzatilayotganini ham aytish kerak. Shuningdek, mehnat va boshqa ijtimoiy jamoalarda ham "gender tenglik" mavzusi ko'tarilganda ko'p hollarda "feminizm" (ayollar huquqlari) masalasi talqin

⁷ Пункт дополнительно включен с 4 июля 2020 года Законом Российской Федерации о поправке к Конституции Российской Федерации от 14 марта 2020 года N 1-ФКЗ // URL: <https://docs.cntd.ru/document/9004937?marker=A7G0NB>





qilinmoqda. Bunday yondashuvlar ham noto'g'ri, albatta. Gender muvozanatini bir tomonlama ta'minlab bo'lmaydi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, "Hayot, oila muvozanatining buzilmasligi uchun ayol ham o'ziga belgilab qo'yilgan vazifalarni bajarishi gender tengligini ta'minlaydi, negaki ayol ham, erkak ham gender tengligiga birdek mas'uldir"⁸. Asosiy maqsad ayolni erkak bilan tenglashtirish emas, balki erkak va ayolning biologik imkoniyati hamda boshqa jihatlarini e'tiborga olgan holda huquq va majburiyatlarni amalga oshirishda ularga adolatli muhitni yaratish bo'lishi kerak. Zero, milliy qonunchiligimizda ham xotin-qizlar va erkaklarning huquq va majburiyatlarida mutlaq tenglikni ta'minlash mumkin emasligi, istisnolar belgilanishi nazarda tutilgan. Masalan, Qonunda "bola tug'ish va ona suti bilan oziqlantirish vazifalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda farqlarni belgilash" jins bo'yicha kamsitish hisoblanmasligi belgilangan.⁹

Ta'kidlab o'tishimiz joizki, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasiga 2019- yil 28-avgustdagi O'RQ-558-sonli Qonun bilan kiritilgan o'zgartish masalasiga alohida to'xtalmoqchimiz. Ya'ni nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilandi (ungacha ayollar uchun 17 yosh edi). Mazkur o'zgartirishni amalga oshirishda mahalliy iqlim, insonning (erkak va ayolning) biologik va reproduktiv rivojlanishi kabi xususiyatlar e'tiborga olinganmikan? Chunki bu o'zgartirish nikoh yoshini yuridik jihatdangina tenglashtirishni amalga oshirganga o'xshaydi nazarimizda (albatta, bu bizning subyektiv fikrimiz).

Keyingi masala shundaki, "gender tengligi"ga sharqona va milliy qadriyatlarimiz asosida yondashishimiz zarurligidir. Zero, "Qur'oni Karimda "Odam bolalarini batahqiq qildik, mukarram qildik, hurmatli qildik", deyilgan. Dinimizda biror jins tahqirlanib, biror jins vakili yuqori sanalmagan"¹⁰. Fikrimizcha, "gender tengligi"ga sharqona yondashuv shunday bo'lishi kerakki, bunda ayolning nozik xilqat ekanini hisobga olib, huquqiy maydonda ayolni huquq va majburiyatlarda erkak bilan tenglashtirish emas, balki adolat mezonini o'rnatish asosiy maqsadga aylanishi kerak. Erkaklarning ham, ayollarning ham o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda

⁸ Ravshanova H.K. Islomda gender tengligi // URL: <https://nargis.uz/?p=3294>

⁹ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni (5-modda) // URL: <https://lex.uz/docs/4494849>

¹⁰ Odinaxon Muhammad Sodiq. Islomda gender tenglik // URL: <https://qalampir.uz/news/islomda-gendertenglik-37965>





huquqlardan foydalana olish imkoniyati yaratilishi kerak. Masalan, farzand dunyoga kelgach beriladigan ta'til borasida Mehnat kodeksining 234-moddasida shunday deyilgan: Bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'tillardan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham to'liq yoki uni qismlarga bo'lib foydalanishlari mumkin. Ya'ni qonun bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'tillardan foydalanish imkoniyatini ham ayolga, ham erkakka taqdim etadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy sohalarida ayollarning rolini oshirishga qaratilgan islohotlar jadallik bilan amalga oshirib borilmoqda. Keyingi vaqtlarda davlat boshqaruv organlariga ayol rahbarlarni tayinlash, oliy ta'lim muassasalariga ayol kishini rektor qilish, ayol vazirlar va vazir o'rinbosarlari, ayol elchilar bo'lishi kabi tashabbuslar ilgari surilmoqda. Albatta, bunday tashabbuslar tahsinga sazovor va biz ularni qo'llab-quvvatlaymiz. Ammo masalaning boshqa tomonini ham e'tiborga olish zarur. Boshqaruv va ijtimoiy-siyosiy sohalarda shundayin ham kam sonli bo'lgan xotin-qizlarning professional bilim va tajribalarini hisobga olmay, ularning malakasini oshirmay lavozimga tayinlash kabi salbiy holatlar yuz berishining oldini olish, ya'ni xalq tilida aytganda, "qosh qo'yamiz deb, ko'z chiqarmaslik" kerak. Bu ishda shoshma-shosharlik bo'lmasligi kerak. Avvalo, ziyoli va olim xotin-qizlarimizning har bir soha bo'yicha kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda tizimli tartibda tayyorlab borish institutini tashkil qilish lozim. Albatta, bu kabi masalalarni adolatli hal qilmay turib maqsadga erishib bo'lmaydi.

Xulosa sifatida quyidagilarni taklif etmoqchimiz:

- gap gender tenglikni ta'minlash haqida borar ekan, "gender tenglik" faqat huquqiy maydonda yechim topadigan masala emasligini, buning iqtisodiy va ijtimoiy tomonlarini ham e'tiborga olish kerak;
- milliy qonunchiligimiz (Konstitutsiya, Oila kodeksi)ga "oila - qarama-qarshi jins vakillari (ayol va erkak)ning o'zaro ittifoqi" ekanini nazarda tutuvchi aniq norma kiritilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, gender tengligi masalasida millatidan qati'y nazar fuqarolarimizning pozitsiyasi xalqimizning milliy qadriyatlariga uyg'un bo'lishi, xalqaro standartlarni milliy qonunchiligimizga joriy etishda oqilona samarali ishlar olib borilishi zarur.





ISSN (E): 2181-4570

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://iiiau.uz/oz/news/814>
2. <https://telegra.ph/Oila-va-hotin-%D2%9Bizlar-ilmij-tad%D2%9Bi%D2%9Bot-instituti-olimlari-tomonidan-ZHamiyatda-hotin-%D2%9Bizlarning-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bij-savodhonligini-%D1%9Erganish-mav-03-14>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi (2019-yil 21-iyun). “Xalq so‘zi”, 2019-yil 22-iyun.
4. Islomda ayollarning huquqlari // <https://religions.uz/news/detail?id=1067> (murojaat vaqti:06.09.2022 y.)
5. Odinaxon Muhammad Sodiq. Islomda gender tenglik // URL: <https://qalampir.uz/news/islomda-gendertenglik-37965>
6. Равенство полов // URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Равенство_полов (мурожаат вақти: 06.09.2022 й.)
7. Пункт дополнительно включен с 4 июля 2020 года Законом Российской Федерации о поправке к Конституции Российской Федерации от 14 марта 2020 года N 1-ФКЗ // URL: <https://docs.cntd.ru/document/9004937?marker=A7G0NB>
8. Ravshanova H.K. Islomda gender tengligi // // URL: <https://nargis.uz/?p=3294>
9. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni (5-modda) // URL: <https://lex.uz/docs/4494849>

